

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

DINIY BAG‘RIKENGLIK – TINCHLIK POYDEVORI

Eshboyev Ma’sudbek

TATU Samarqand filiali Telekommunikatsiya

Texnologiyalari instituti talabasi

Telefon raqam +998 991763604

Samatov Xurshid

Ilmiy rahbar

Annotatsiya:

O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik an’analari to‘g‘risida fikrlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi, millat, din.

KIRISH

Ma’lumki O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi, bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan bir necha xalqlar yashagan o‘lkadir. O‘zbekistonning geografik nuqtai nazaridan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani, turli xalqlarning diniy va ma’naviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrda urf-odatlar ham o‘zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa o‘ziga xos millatlararo hamjihatlik va diniy bag‘rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma’naviy uyg‘onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan, tinch-totuv yashagan markaz bo‘lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik, hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me’yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar. Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'nggi ikki asr davomida ham o'zlarini "madaniyatli" va "ma'rifatli" hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch joylashgan bir joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi. Hech kinga sir emaski, bugungi kunda turli dinlar va madaniyatlarga mansub davlatlar o'zaro yaqinlashmoqda. Bu hol ular orasidagi ijtimoiy, madaniy va diniy sohalardagi doimiy muloqotlarni taqozo etmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib 1945- yilda BMT ustavi "sabr-toqatli bo'lish, jahonda yaxshi qo'shnilar sifatida birgalikda yashash, hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash uchun sa'y harakatlarimizni birlashtirish"ni o'z maqsadlaridan biri deb e'lon qildi. 1981-yil 25-noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 361.55-rezolyutsiyasi din yoki e'tiqodga asoslangan sabr-toqatsizlik va kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi deklaratsiyani e'lon qildi. Bosh Assambleya a'zo davlatlarni din yoki e'tiqod erkinligiga rioya qilish va uni kafolatlashga, din yoki e'tiqod erkinligi masalalarida bir-birini tushunish, sabr-toqatli va o'zaro hurmat qilishga ko'maklashishga, hamda din yoki e'tiqoddan BMT ustaviga va BMTning boshqa tegishli hujjatlariga xilof bo'lgan maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikka da'vat etadi. Bugungi kunda jamiyatimizda turli dinlarga mansub fuqarolarning o'z diniy arkonlari va amallarini emin-erkin ado etishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Ta'kidlanganidek, din, shu jumladan, muqaddas islom dinining odamlarni ezgulik va halollik, poklikka undash, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga da'vat etishdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Biroq bugungi murakkab va tahlikali, tezkor globallashuv davrida dunyoning turli mintaqalarida ro'y berayotgan mojaralarda ba'zan din yoki milliy masala niqob qilib olinayotgani sir emas. Bu barchani yanada hushyorlik va ogohlikka, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga, uning qadriga yetishga, jamiyatdagi barqaror muhitni asrab-avaylashga, yoshlar tarbiyasi uchun mas'uliyatni his etishga da'vat etadi. Bu kabi mudhish va vayronakor kuchga qarshi kurashda dunyo hamjamiyati birdek harakat qilishi lozim. Shu ma'noda, yurtimizdagi millatlararo va diniy konfessiyalararo totuvlikni, o'zaro hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat jahon hamjamiyatiga ibrat bo'la olishi nufuzli



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xalqaro tashkilotlar, xorijlik olimlar, yetuk mutaxassislar tomonidan e'tirof etilmoqda. Yurtimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslar paydo bo'layotgani tom ma'nodagi do'stlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Yurtimizda ta'lim yetti tilda olib borilayotgani, 138 ta milliy madaniy markazlarning faoliyat ko'rsatayotgani bag'rikenglik siyosatiga nechog'li amal qilinayotganligiga misol bo'la oladi. Qolaversa, 130 dan ortiq millat va elat vakillari o'rtasida diniy bag'rikenglik va millatlararo do'stlik tobora mustahkamlanib bormoqda. Yurtimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslar paydo bo'layotgani tom ma'nodagi do'stlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlanmoqda, va ularning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekistonning bu borada olib borayotgan oqilona siyosati Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni barcha yurtdoshlarimiz bilan hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik beradiki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridandir. Istiqol bizga ana shu ezgu an'analarni izchil davom ettirish va avloddan avlodga yanada mukammal bo'lib o'tishini ta'minlash imkonini berdi. Zero, O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir. Inson va jamiyat bu ikki so'z bir -biri bilan uzviy bog'liq. Zero, inson uchun jamiyat qanchalar zarur bo'lsa, jamiyatni ham insonlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz bejizga, yuqorida inson va jamiyat munosabatlari haqida so'z yuritmadik. Aytish joizki, aynan shu inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatni mana 26 yildirki, "Konstitutsiya" muvofiqlashtirib, yanada mustahkamlab kelmoqda. Mening fikrimcha, konstitutsiya deganda, har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining ko'z oldida dastlab, uning 1992 yil 8 dekabrda qabul qilinganligi, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat ekanligi gavdalanadi. Ha, bu sana va raqamlar har bir insonning ongiga shu qadar singib ketganki, buni so'z bilan ifoda etish qiyin. Konstitutsiyaning har bir moddasi nafaqat moddasi, balki har bir so'zi biz insonlarni himoya qiladi, imkoniyatlarimizni belgilaydi va eng asosiysi tinchligimizni ta'minlaydi. Mustaqillik yillarida va ungacha bo'lgan davrda ham bizning muqaddas dinimiz bo'lgan "islom" dinini niqob qilib turli harakatlar uyushtirildi. 1992 yil 8



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

dekabrda O‘zbekiston 57-61 moddala Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi va Konstitutsiyaning "Shaxsiy huquq va erkinliklar" deb nomlangan VII bobining 31- moddasi va "Jamoat birlashmalari" to‘g‘risidagi XIII bobiningrida yuqoridagi muammolarga barham berishni ko‘zda tutadi. Qadimdan o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, tinchlikparvarlik kabi insoniy fazilatlarini ulug‘lanadi. Shu bois, O‘zbekistonda ko‘p millat va elat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. Ayni vaqtda, diyorimizda o‘z madaniyati va an‘analariga ega bo‘lgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari mavjud. Albatta, mamlakat aholisining milliy tarkibini asosiy qismi o‘zbeklar hisoblanadi. Yanada oydinlashtiradigan bo‘lsak, bugungi kunda mamlakatimiz aholisi 34 mln dan ortiq bo‘lib, shulardan 80 % ini o‘zbek, 4,9 % ini tojik, 3,8 % ini rus, 3,6 % ini qozoq va 7,7 % ini boshqa millat vakillari tashkil etadi va o‘z navbatida ular orasida islom dinidan tashqari, xristianlik, buddaviylik va boshqa dinga e‘tiqod qiluvchilar mavjud. Bularning barchasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 31- moddasida quyidagicha aks ettirilgan: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi." Darhaqiqat, islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish "Qur‘oni Karim" da ham bu so‘zlar ta‘kidlangan. "Mumtahana" surasini 8-9 - oyatlarida shunday zikr etilgan: "Sizlar bilan dinda urush qilmagan o‘zga din vakillari bilan bordi-keldi qiling. Ular bilan adolatli muomalada bo‘ling" Guvohi bo‘lganingizdek, Qur‘oni Karimda ham diniy bag‘rikenglik, boshqa din vakillariga bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - inson qadrini ulug‘lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati hurmat qat‘iy belgilab qo‘yilgan. Shunday qilib, dinning hozirgi mavqei O‘zbekistonda sobiq sho‘ro davri holatidagidan butunlay farq qiladi. Dinimiz taraqqiyoti uchun davlatimiz barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Diniy e‘tiqod esa davlat tomonidan kafolatlanadi. Jumladan, 1998 yil 1 mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun O‘zbekistonda dinning mavqei va o‘rnini juda aniq belgilab berdi. Qonunga muvofiq O‘zbekistonda din davlatdan ajratildi. Bu qonun natijasida bizning dinimiz o‘zining oldingi mavqeini tikladi, jamiyatning ma‘naviy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov o‘zining "Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch" asarida shunday yozganlar: " ...muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag‘rikengligi, odamzodni doimo ezgulikka chorlashi, hayot



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq". Darhaqiqat, islom dinidan har bir inson o'ziga ma'naviy ozuqa, ruhiy madad olishi mumkin. Faqatgina, dinni to'g'ri tushunib, uning asl mazmun- mohiyatini anglab yetsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Afsuski, ba'zi bir diniy tashkilotlar dinning tub mohiyatini chuqur anglab yetmay, noto'g'ri talqin qiladi va insonlar ongini zaharlashadi. Bunga javoban davlatimizda boshqa qonuniy-diniy tashkilotlar ham faoliyat yuritib kelmoqda. Bu borada, Konstitutsiyamizning 61-moddasini aytib o'tish o'rinlidir. Ushbu moddaning mazmuni quyidagicha: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi". Bularning barchasida Respublikada dinga bo'lgan munosabat va imkoniyatlarni ko'rishimiz mumkin. 2017 yilda yurtboshimiz tashabbusi bilan "2017-2021 yillarga mo'ljallangan" O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi. Strategiyaning beshinchi yo'nalishi "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalish",– deb belgilandi. Bu islohotning isboti sifatida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan, "Inson huquqlarining 70 yilligiga bag'ishlangan konferensiya" ni aytish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti BMT Bosh Assambleyasida bo'lib o'tgan konferensiyada ham o'zlarining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qildilar. "Rezolutsiyaning bosh maqsadi– barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iboratdir",– deydi hurmatli prezidentimiz o'z nutqlarida.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biz yoshlar, yurtboshimizning murojaatlariga "labbay" deb javob bermog'imiz, islohotlarni joylardagi amaliyotlarni ta'minlashga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur va shart deb o'ylayman. Bu ham bo'lsa, davlatimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlararo va dinlararo bag'rikenglikka berilayotgan e'tibordan dalolatdir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
- 2.Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
- 3.Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
- 4.Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
- 5.Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
- 6.Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
7. Elguzarov, B. B. O. G. L., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA MITANNI DAVLATCHILIGINING O'RN VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6), 616-619.
8. Erkinov, A. S. O., & Haydarov, S. (2021). YUNON-BAQTRYA PODSHOLIGINING IJTIMOYI TUZIMI, XO'JALIGI VA MADANIYATI. Scientific progress, 1(6), 620-622.
9. Nematov, M. D. O., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI ORGANISHDA SHUMER-AKKAD DAVLATCHILIGINING ORNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 1(6).
10. Ermatov, F., & Haydarov, S. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA 1870-1914 YILLARDA ANGLIYANING O'RGANILISHI. Scientific progress, 1(6).

